

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduxalimov	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
F.K.Yusupjanova	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rganish	217
F.M.Mamadjanov	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari.....	227
M.Komilova	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish.....	233
A.A.Abduxalimov	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoviy xossalari	242
S.M.Isroilova	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
Sh.V.Djalolov	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining monitoringi.....	253
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari.....	260
D.T.Samatov	
Falsafa fanini o'qitishda multimediyaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi.....	265
A.U.Azimov	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni	269
A.A.Ahrorqulov	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash.....	275
D.A.Mamajonova	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari.....	279
M.M.Mamadaliyeva	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili	282
U.O'.Musoyev	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi.....	286
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiy va maxsus tayyorgarligi	291
M.M.Alimova	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati)	299
R.Sh.Bozorova	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni.....	303
E.X.Zoyirov	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi	307
A.S.Inomov	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi.....	311
I.S.Aslonov	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi	316
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari	320
O.Radjabov	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi	324
Y.Shukurillaev	
Sho'ro Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili	330
M.M.Mamatkodiurov	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar.....	333
M.Sh.Qoraboeva	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili	338

OLIV TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH
БОРЬБА С КОРРУПЦИЕЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ
FIGHT AGAINST CORRUPTION IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Ahrorqulov Anvar Anvarovich¹

¹Ahrorqulov Anvar Anvarovich

— Huquq ta'limi kafedrasini mudiri, Y.f.b.f.d(PhD)

Annotatsiya

Korrupsiyaga qarshi nafaqat davlat organlari, balki talim muassasalari organlarining faol harakati va ularning bu illat yuzasidan asos deb biladigan fikr va mulohazalari batafsil yoritilib ko'rsatilib o'tilgan.

Аннотация

Подробно показаны активные действия не только государственных органов, но и образовательных учреждений против коррупции, их мнения и соображения относительно этого зла, которое они считают основой.

Abstract

The active action of not only state bodies but also educational institutions against corruption, and their opinions and considerations regarding this evil, which they consider to be the basis, are shown in detail.

Kalit so'zlar: "Mahalliy davlat organlari nazorati", "Ijtimoiy fikr", "Shikoyatlar", "Jinoiy javobgarlik".

Ключевые слова: «Контроль местных государственных школ», «Общественное мнение», «Жалобы», «Уголовная ответственность».

Key words: "Control of local state authorities", "Social opinion", "Complaints", "Criminal responsibility".

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rilmogda.

Korrupsiyadan holi jamiyat va davlatni yaratish mamlakat taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 7-dekabr kuni Konstitutsiyamizning 26 yilligiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqlarida "Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz"[1] deb ta'kidlagan edilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi yo'naltirgan barcha islohotlar fuqarolarning huquq va manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, ta'lim sohasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish orqali mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, Prezidentimiz 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomalarida, "oliy ma'lumot olaman, o'z ustimda ishlab, ilmi bo'laman, degan, yuragida o'ti bor, jo'shqin yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklarni yaratishimiz shart. Shuning uchun maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2020-yilda kamida 25 foizga va kelgusida 50-60 foizga yetkazamiz", deb ta'kidlab o'tdilar[2]

Jahon Banki tomonidan keltirilgan tahliliy ma'lumotda, mamlakatimizda mehnat bozorining rivojlanishi iqtisodiyotning o'zgarishi bilan birga sodir bo'layotgani, bu holat turli kasb egalariga bo'lgan talabni o'sishiga olib kelayotgani, mehnat bozori talablarini qondirishda sifatli oliy ta'lim muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanib, oliy ta'lim tizimidagi islohotlarni mehnat va iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlarga muvofiq amalga oshirish tavsiya etilgan.

Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish dolzarb masala ekanligini turli omillar bilan belgilashimiz mumkin, biroq quyida keltiriladigan omillar eng ustuvorlari hisoblanadi:

zamonaviy davlat xizmati va xususiy sektorda kasb turlari shiddat bilan ko'payayotgan bir vaziyatda malakali kadrlarga bo'lgan talabning ortishi va ijobiy natijalarga erishishda yetuk kadrlar xizmatidan foydalanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgani;

bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida farovon hayot kechirish, kasbiy va insoniy hurmat e'tiborga erishish uchun oliy ma'lumotli kadr bo'lish;

yuqorida keltirilgan ikki omil asosida taraflar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarga korrupsiyaning aralashuvi natijasida kelib chiqadigan jiddiy salbiy oqibatlar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Davlat va xususiy sektorda malakali kadrlarga bo'lgan talab va shaxsni oliy ma'lumotga ega bo'lish orqali moddiy hamda ma'naviy manfaatni qo'lga kiritishga intilishi subyektlar o'rtasida munosabatlar ortishiga, qonuniy munosabatlarni korrupsiyaviy munosabatlarga o'zgarishiga kuchli ta'sir qiladi. Zero, oliy ma'lumot olish va malakali kadr bo'lish og'ir mehnat talab etishi, hamma ham o'z kuchi va qobiliyati bilan unga erisha olmasligi ularni korrupsiya usulidan foydalanishga undaydi.

Birinchi asos bo'yicha, davlatning oliy ta'limga bo'lgan yuqori e'tibor va ehtiyoji quyida keltiriladigan raqamlarda isbotini topgan.

Bugungi kunda, respublikada 117 ta oliy ta'lim muassasi (matnda OTM shaklida) mavjud bo'lib, ularning 96 tasi milliy, 21 tasi xorijiy muassasalar hisoblanadi. Ularda bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 410 ming, magistratura yo'nalishi bo'yicha 13 ming nafar talabalar ta'lim olmoqda.

So'nggi uch yil davomida oliy ta'lim sohasida 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Bu davrda mamlakatimizda 6 ta OTM, 17 ta filiallar, 14 ta xorijiy oliy o'quv yurtlari tashkil etildi, yuzdan ortiq bakalavriat hamda 94 ta magistratura yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi, 2019-2020 o'quv yilidan 59 ta oliy o'quv yurtida sirtqi, 10 tasida kechki ta'lim joriy qilindi.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 20 foizga oshdi.

Sohaga budjetdan ajratilayotgan mablag'lar miqdori yildan-yilga ortib, 2018-yilda 879 mlrd. so'm, 2019-yilda 1 trln. 288 mlrd. so'm mablag'lar ajratilgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 1 trln. 888 mlrd. so'mni tashkil etmoqda.

Professor-o'qituvchilarning maoshi 2018-yilda o'rtacha 25 foizga oshirilgan bo'lsa, 2019-yil 1 yanvardan 20 foizga, 1-iyuldan esa 25 foizga oshirildi[2].

Ikkinchi asos bo'yicha, korrupsiyaga qarshi kurashishda oliy ta'lim muhim ahamiyatga ega soha sifatida ajralib turadi, chunki oliy ta'lim mehnat faoliyatiga yo'llanma beruvchi yakuniy uzluksiz ta'lim bosqichi hisoblanadi. Butun dunyoda va mamlakatimizda oliy ta'lim olishga bo'lgan intilish juda yuqori va bu boradagi kuchli raqobat korrupsiyaviy holatlar kelib chiqish ehtimolini oshiradi.

Raqamlarga murojaat qilsak, sohada o'tgan 2019 yilda avvalgi bitiruvchilar bilan birga 1.066.922 nafar nomzodlar OTMga kirish imtihonlarini topshirgan bo'lib, ularning 121 ming nafari talabalikka tavsiya etilgan. Ko'rish mumkinki, nomzodlarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 11.3 foizni tashkil qilmoqda.

Uchinchi asos bo'yicha, oliy ta'lim "korrupsiyaning dastlabki maktabi" hisoblanadi, chunki bu faoliyatda talaba voyaga yetgan mustaqil shaxs sifatida o'qituvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri huquqqa zid faoliyatga kirishadi va unda korrupsiyaga moyil shaxsiyat shakllanib boradi. Kelajakda korrupsiyaga moyil kadrlarni mas'uliyatli lavozimni egallashi salbiy oqibatlariga sabab bo'ladi. Demak, oliy ta'limda korrupsiyani mavjud bo'lishi boshqa sohalarga ham korrupsiyani keng tarqalishiga yo'l ochib beradi. Sohadagi korrupsiya bilimsiz talabalarni shakllantirish bilan birga, yuqumli kasallik misoli ilmiy talabalarni ham korrupsiya yo'lini tanlashga undaydi[3].

Salbiy ko'rsatkichlarga murojaat qilsak, so'nggi ikki yilda oliy ta'lim tizimidagi 326 nafar xodimlar jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lib, 317 nafari yoki 97 foizi korrupsiyaviy jinoyat sodir etgan[4].

Shuningdek, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi tomonidan 2018-yilda o'tkazilgan so'rovda 29 foiz, 2019-yilda o'tkazilgan so'rovnomada 35 foiz ishtirokchilar oliy ta'lim tizimida korrupsiya keng tarqalganligini e'tirof etgan[5].

Yakuniysi, yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lmagan, ma'naviy qashshoq yosh avlodni qiyinchiliksiz davlat siyosatidan og'dirish, turli salbiy yo'llarga yetaklash mumkin bo'ladi va bu esa o'z navbatida davlatdagi siyosiy va ma'naviy holatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan muhim omillarni inobatga olgan holda davlat tomonidan oliy ta'limga dolzarb sohalardan biri sifatida e'tibor qaratilib, chinakam "korrupsiyasiz sohaga" aylantirish maqsadida

jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasida, oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlab berishi kerakligi ko'rsatilgan[6].

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonida, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida OTM faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, OTMga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish belgilangan bo'lsa[7], 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarori asosida oliy ta'lim tizimida amalga oshiriladigan islohotlar bo'yicha "yo'l xaritasi" tuzildi[8], 2019-yil 11-iyundagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5763-sonli Farmonida, oliy ta'lim sohasida samarali boshqaruv tizimini yaratish ko'zda tutildi[9].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5729-sonli Farmoni asosida 2019-yil 1-avgustdan boshlab eksperiment tariqasida oliy ta'limda "korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish belgilandi[10].

XULOSA

Davlatimiz rahbari tomonidan oliy ta'lim tizimiga qaratilayotgan alohida e'tibor va g'amxo'rliklarga qaramasdan, sohada korrupsiya holatlari, jiddiy muammo va nuqsonlar saqlanib qolmoqda. Shuning uchun birinchi navbatda oliy ta'lim sohasida mavjud korrupsiyaviy xavfxatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etish lozim bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. SH.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza, 2018 yil 7 dekabr.
2. SH.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasi, 2020 24 yanvar.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Respublika Idoralararo komissiyaning yig'ilish bayoni, "Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish va qonuniyligni ta'minlashga doir masalalar" – 2019 yil. 18- yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma'lumotlari milliy bazasi, 2019 y., 06/19/5847/3887-son.
5. Nataliya L. Taxonomy of Corruption in Higher Education Peabody Journal of Education", Newly Emerging Global Issues, 2005,p – 81-92.
6. Akhrorqulov, A. (2020). Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2(10), 129-134.
7. Gulyamov, S., & Akhrorqulov, A. (2022). NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY ASOSLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1029-1041.
8. Akhrorqulov, A. (2022). NOTIJORAT TASHKIOTLARI TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 893-902.
9. Akhrorqulov, A. (2020). Issues of formation and registration of non-profit organizations. *Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19)*, 1(02), 23-26.
10. Mamajonova, D. (2022). KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR–XALQ MANFAATINING ASOSIY MEZONI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 688-693.
11. Dadaboeva, D. A. (2021). Civil-legal regulation of educational services. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 448-453.
12. Baratov, M., & Borotov, A. (2021). METHODS AND RESOURCES OF REALIZING THE RIGHT OF PRIVATE PROPERTY OR THE RIGHT TO USE THE LAND AS AN ELEMENT OF PRIVATE PROPERTY. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.4 Legal sciences).
13. Borotov, A. X. (2021). XUSUSIY MULK HUQUQINI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI: DE YURE/DE FACTO. *JURNAL PRAVOVIX ISSLEDOVANIY*, 6(5).
14. KO 'CHMAS MULK SOTILGANDA YER UCHASTKASIGA BO 'LGAN HUQUQNING YURIDIK TAQDIRINI BELGILASH A Rahimjonov "Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ... 2 2022
15. INCREASING CIVIL LIABILITY FOR VIOLATION OF RIGHTS TO REAL ESTATE A Rakhimjonov "The american journal of social science and education innovations" 3 (04 ... 1 2021
16. Topildiyev, B. R. (2022). MOL–MULKNI ISHONCHLI BOSHQARISH TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 998-1008.

17. Topildiyev, B. R. (2017). Osnovniye usloviya dogovora doveritelnogo upravleniya imushestvom. Yurist, (9), 15-19.